— Senga nima zaril, shu ahvolda kaltak yeb, mayib bo'lib yurish?... Undan ko'ra el qatorini tinchgina xizmat qilib yursang bo'lmaydimi? Olti oy ham o'tadi-ketadi...

Nurulloh gapimini bo'ldi va keskin ohanga gapira boshladi:

— Binda bir udum bor. Askar armiyaga jo'nar ekan, unga non tishlatadi. Keyin esa askarning otasi unga shunday so'zlarni tayinlaydi. Bu so'zlar har bir chechen uchun qonun: "O'g'lim! Qayerda bo'lsang ham, kim bilan bo'lsang ham, chechen xalqining boshini yerga qaratma. Uyga jonsiz tanang kelsa, kelsin, lekin birovning oldida bosh egib malaylik qilma!" Shu bizning tutumiz...

Nurullohning so'zlaridan etim jirimirlab ketdi. Va beixtiyor serquyosh

...Yana bir qiziq narsa bor. Bu har bir yigitga tanish holat, meniga — uzoq tundradagi askar yigitga O'zbekistondan — Gulnoradan xat bordi. Men u bilan ahd-paymon qilgandim. Bu maktub Gulnoradan menga borgan birinchi va oxirgi maktabdir. U xatida otasi boshqaga unashtirganini, taqdiri boshqa bilan bir ekanini, mening ham xafa bo'lmashigimni va... meni baribir yomon ko'rolmasligini yozgandi. Dunyom qorong'i bo'ldi. Ammo nachora, nasiba bo'lak ekan-da...

Men Mister Bin nomi bilan mashhur bo'lgan angliyalik aktyor Rouen Atkinsning ashaddiy muxlisiman. Bunga sabab u inson tabiatida mavjud bo'lgan, ammo omma orasida ko'rsatishga, birovlarga bildirishga iymanadi-gan qusurlarni, illatlarini, mug'ombirliklarni kulgiga o'rabi, mahorat bilan ochib beradi. Aslida, har bir tirk joning ko'ngil tubida mavjud bo'lgan, lekin odamlarga ko'rsatishga cho'chiydigani bu kabi jihatlarni R. Atkinson ajoyib tarzda ifoda eta biladi.

Biz XXI asrning birinchi choragini yashab o'tyapmiz. Ayni shu damlarda bizning — insoniyatning asl basharasi — niyati, o'yash tarzi, qiziqqan, talpingan jihatlari baralla ko'rinib bormoqda. Bunga asos bo'lguvchi omillar ham talaygina, albatta. Diniy, ijtimoiy, madaniy tomonlardan bo'layotgan poygalar, reklama libosidagi o'jar bahslar va bularning tub mohiyatida yotgan siyosi, pirovardida, iqtisodiy hokimlikka ega bo'lishdek da'volar borki, bu endi, yuksak tog'dan yumalagan tosh kabidir. Uni to'xtatish mahol. Ana shunday bir vaziyatda inson inson uchun ko'zgu, odam odamga parda, birov ikkinchi birovning

aybini ochmasligi kerak, degan azaliy, insonparvar tutumlar, barcha dillarda ardoqlangan g'oya va qarashlar puturdan ketgandek taassurot uyg'otmoqda. "Demokratiya" degan so'zni o'zicha tushungan, farosati darajasida qabul qilgan butun boshli avlod shaklanib borayotgandek... Yuqoridagi kabi ta'sirlar globalashuv davrida O'ze-

Yuqorida harbiy xizmatdagi o'zbek yigitining subhatiga quloq tutdik. Uning — o'sha davr yoshlaringin ahvoli-ruhiyasi bilan biroz tanishdik.

Mister Binning mahoratida insoniy ojizlik, pinhona yovuzliklarni ko'ra bildik.

Bularni aytmoqdan maqsad nima?

Bugun ijtimoiy tarmoqlarda avjiga chiqib borayotgan

"haqiqatni qanday bo'lsa, shundayligicha" ko'rsatishga

urinayotgan qavm unutmasligi shart: Inson hayvon emas:

kuladi, yig'laydi, tafakkur qiladi. Inson farishta emas: tug'iladi, tug'adi, tug'diradi. 3-4 million yillik yo'lni bosib o'tgan odamzod faqatgina kengfe'lligi, andishasi, sabri bilan yuksak marralarga yetib kelgan. Sira ham ur-yiqit, birovlarni sharmanda qilib haqiqatga yetib kelgan emas.

lab o'tib ketayotir. Uning chehrasidagi hayajon, hayo, titrab turgan quvонч tuyg'ulari... Yigitda ham shunga o'xshash bir ajib, har kuni duch kelin-maydigan bir holat... Ammo ularning bu tarziga hech kim parvo qilmaydi. Insonning shunday go'zal holatlarini, uning kelajakdan umidli, pok niyatida tur-

gan ushbu holatga mehr va havas bilan qarash kerak bo'lgan bir pallada ularga aksariyat bugungi zamondoshlarimiz bunday nekbin nigoh bilan qaramaydi. Ammo... o'sha yigit va qiz nimanidir kelisholmay, tortishib, deylik, urushib qolsa va qiziqqon yigit qizning yuziga tarsaki tortib yuborsa, bunga endi hamma qaraydi va... darhol videoga oladi. So'ng uni ijtimoiy tarmoqlarda tarqatib, yigit va qizni sharmisor qiladi. Bundan o'sha "videochi" ga nima naf, qanday manfaat bor?.. Hech qanday! Biroq u (bundaylar hozir juda serob) shu qilgan bemaza ishidan mazza qila-di, bopladim, deb kerilib yuradi.

O'zbek xalqining tabiatiga ziddet ko'ringan, ammo, aslida, mavjud bo'lgan bu kabi illatlar juda katta fojiali yusurni maydonga chiqarmoqda. Sezilib-sezilmaydigan, biroq 33 millionlik xalqning 60 foizdan ortig'ini tashkil etuvchi yoshlarning ong-shuuriya bunday qusurlar tabiiy yo'sinda singib bormoqda. Shunday bo'lishi kerak, avval ham shunday bo'lgan, deganga o'xshash to'xtamlar ularda ko'nikmaga aylanayotir.

Muqaddas Islom dinida rivoyat qilingan hadisalarda ham bu masalaning teran, odilonla yechimi ko'rsatilgan. Misol uchun, hadisi sharifda "Kim mo'minning aybini yashirsa, Olloq qiyomat kuni uning aybini yashiradi", deyiladi.

Shunday ekan, mulohaza qilmoq va jamiyatda urchib borayotgan bu kabi illatlarning chorasini topmoq shart bo'lib qolyapti.

Bular bizga o'rnak yoki chora bo'la oladimi?

Bugun tarbiyamiz uchun eng ko'p yetishmayotgan narsa — ma'naviy bo'shlig'imizda chinakam qahramonlarning yetishmayotganidir. Yoshlarimiz uchun chinakam zamon qahramoni timsolini yaratib berolmayapmiz. Ularni bidzan oldinroq o'zga kuchlar o'ziniki qilib olmoqda. Chunki ularغا biz namuna berolmayapmiz. Darhaqiqat, o'rta maktabning ikki nafer bitiruvchi sinf qizi yoqalashib urushayotganini videooga olayotgan kimsha ularni ajratish lozimligini, bo'y yetib qolgan qizlarning sha'nini o'z sha'nini deb bilishi zarurat emasimi?

O'zimizni "Onangni otangga be-pardoz ko'rsatma", "Otang o'tirgan uyning tomini kurama", "Ota bilan onanining aybini yuziga aytmaydilar", "Uy gapi ko'chaga chiqsa, bu uyga shayton oralaydi" kabi naqlarni unutmagan, andishali, sabrli xalqning avlod o'laroq anglashimiz lozimki, bizni kamolga faqatgina

O'zbek xalqining tabiatiga ziddet ko'ringan, ammo, aslida, mavjud bo'lgan bu kabi illatlar juda katta fojiali yusurni maydonga chiqarmoqda. Sezilib-sezilmaydigan, biroq 33 millionlik xalqning 60 foizdan ortig'ini tashkil etuvchi yoshlarning ong-shuuriya bunday qusurlar tabiiy yo'sinda singib bormoqda. Shunday bo'lishi kerak, avval ham shunday bo'lgan, deganga o'xshash to'xtamlar ularda ko'nikmaga aylanayotir.

Xulosa o'mida Hazrat Navoiyning ushbu hikmatini keltirib o'tishni lozim topdim:

Oqil chindan o'zga demas, amma barcha chinni ham demak oqil ishi emas.

Shodmonqul SALOM

O'zimizni "Onangni otangga be-pardoz ko'rsatma", "Otang o'tirgan uyning tomini kurama", "Ota bilan onanining aybini yuziga aytmaydilar", "Uy gapi ko'chaga chiqsa, bu uyga shayton oralaydi" kabi naqlarni unutmagan, andishali, sabrli xalqning avlod o'laroq anglashimiz lozimki, bizni kamolga faqatgina

yurtimmi, uning bag'rikeng odamlarini esladim. Ularning meni harbiya kuzatayotgan pallada xuddi Nurullohga o'xshatib non tishlatgani, keyin esa aytgan so'zlar yodimga keldi. Katta tog'amming shunday degani esimda: "Jiyan, o'zingni asra! Bekorga joningni og'ritma! Bizlar ham armiyada bo'l-ganjamiz. Mehnatdan hech kim o'lma-gan. Mehnat odamni ulug'laydi. Nima qilsang ham omon-eson qaytib kel..." .

Tasavvur eting: go'zal, navnihol bir qiz unashtirilgan yigitini bilan gulzor ora-

Qozog'iston liberallashtirish siyosatiga sodiq

Qozog'iston prezidenti Qosim-Jomart Toqayev birinchi marta xalqqa murojaat bilan chiqdi. U yaqin istiqbolda mamlakat oldida turgan eng muhim vazifalarga to'xtaldi.



Aytish joizki, Markaziy Osiyonning lokomotivlariidan biri bo'lgan Qozog'iston yana rahbarga yolchidi. Hokimiyat boshiga xalqparvar, yurtparvar, islohotchi prezident keldi. Uning mamlakatda boshlagan siyosiy va iqtisodiy islohotlari shundan dalolat beradi. Xalqaro hamjamiyat Osiyoning "iqtisodiy bars" lardan biriga aylanib bora-yotgan Qozog'istondagi o'zgarishlarni astoyildi qo'llab-quvvatlamoqda. To'g'ri, Qozog'iston istiqlol yillari misli ko'rilmagan yutuqlarga erishdi. Ammo hayot shiddat bilan rivojlanmoqda. Global miqyosda o'z o'mini mustahkamlash uchun taraqqiyot strategiyasiga oid yondashuvlarmi o'zgartirish lozim. Prezident Qosim-Jomart Toqayev davlat tepeasiaga kelgan kunidan boshlab islohotchi prezident ekanini namoyish etdi. Ijtimoiy hayotning barcha sohalarida o'zgarishlar boshlandi. Toqayev xalqqa yo'llagan murojaatida mamlakatni rivojlanirish yo'llarini belgilab berdi, hukumat oldiga yangi vazifalar qo'ydi, davlatning ichki va tashqi siyosatidagi ustuvor vazifalarga to'xtaldi.

Qozog'iston haqida gap ketganda, ko'z oldimizga dinamik tarzda bozor iqtisodiyoti rivojlanayotgan, kuchli ijtimoiy va fuqarolik institutlariga ega, zamoniaviy va progressiv mamlakat keladi. Birinchi prezident Nursulton Nazarboyev boshchiligidagi Qozog'iston-da mamlakatni tinch yo'dan yetaklash va fuqarolarning farovonligini yanada oshirishning mustahkam poydevori qurilgan. Keskin konstitutsiyaviy, siyosiy va iqtisodiy islohotlar o'tkazildi. Shunday bo'lsa-da, prezident Toqayevning mavjud taraqqiyotdan ko'ngli to'layotgani yo'q. Endi mamlakatni yangicha yondashuvlар asosida rivojlanirish vaqtiga allaqachon yetib kelganini ta'kidlayapti.

Qozog'iston xalqi amaldagi prezidentning ushu murojaatini kutgan edi. Odamlar yangi prezidentning saylovoldi va'dalari qanday shakl va dastur ko'rinishida bo'ladi, yangi yetakchi ahollining turmush sharoitini yanada yaxshilaydimi, iqtisodiyotni ko'taradimi, ochiq fuqarolik jamiyatini qurish va demokrat-

dovonlar yaqinligi borasida dadil gapirish imkonini beradi.

Tibbiy xizmat sifatini ta'minlash haqidagi bayonet ham xalqning ertangi kunga bo'lgan ishonchini mustahkamlaydi. Prezident davlat tomonidan bepul tibbiy yordamning kafolatlangan hajmi saqlab qolinishini tasdiqladi. Darvoqe, oxirgi uch yilda hajmi 17 barobardan ko'proqqa oshgan ijtimoiy ko'mak tizimi ham yanada rivojlaniriladi.

Qozog'iston rahbari kuchli va barqaror iqtisodiyotsiz ijtimoiy islohotlar imkonsizligini yaxshi tushunadi. Uning fikricha, eng avvalo, samaradorlik, ilm-fan Jadalligi va raqamlashtirish ustuvorlik kasb etishi kerak. Raqamli iqtisodiyot yalpi ichki mahsulotni be necha barobar oshirish, korrupsiyan keskin kamaytish imkonini beradi. Nufuzli xalqaro tashkilotlar o'tkazgan tahlillar ham buni tasdiqlaydi.

Murojaatnomada qishloq xo'jaligi tizimiga alohida e'tibor qaratildi. Agrar sektorga katta umid bog'landi. Bu bejiz emas, albatta. Axir Qozog'iston hududi bo'yicha dunyoda 9-o'rinda turadi. Agar yerdan unumli foydalanilsa, Qozog'iston dondan tashqari, meva-sabzavot va bog'dorchilik mahsulotlari bilan dunyo bozorini zabt etishi mumkin. Prezident fikricha, agrar sektor butun Qozog'iston iqtisodiyotining drayveri bo'lishi kerak.

Prezident Toqayev yana bir bor qishloq xo'jaligida muhim ahamiyatiga mollik yerlar xorijliklarga sotilmasligini tasdiqladi. Endi qishloq joylarda yerdan unumli foydalanish yuzasidan taftish o'tkaziladi. Boz ustiga, prezident murojaatidan keyin hukumatni yerni boshqa davlatlar fuqarolariga sotishda ayblayotgan ayrim muxoliflarning ovozi o'chdi. Shubhasiz, qishloq xo'jaligidagi islohotlarning maqsad — iqtisodiy foysa ko'rish bilan birga, oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash, xalq farovonligini oshirishdan iborat.

Korrupsiya — har qanday jamiyatni ichidan kemiruvchi og'ir ijtimoiy illat.

MDH makonida korrupsiya tufayli jamiyat va biznes qattiq talofat ko'rmoqda. Qozog'iston prezidentining korrupsiya-yivi jinoyatlar, poroxo'rlik va tamagirlilikka qarshi kurashish borasidagi fikrleri kichik va o'rta biznes vakillarini ilhom-lantirib yubordi.

Jamiyat va davlatning o'zaro hamkorligi sohasida qonuniylik muhimligi, jinoyat uchun jazo muqarrarligi aytildi; Ayniqsa, shaxsga nisbatan og'ir jinoyatlar, jinsiy daxsizlik, maishiy zo'ravonlikka boshqa chidab bo'lmasligi kun tarhibiga qo'yildi. Zo'ravonlarni jazolashni kuchaytirishga qaratilgan urg'u — bu prezident va uning adminstratsiyasi jamiyatga qarshi qaratilgan chaqiriqlarga hozirjavobligidan dalolatdir. Ayollar va bolalarga nisbatan ishlataligan zo'ravonliklar bahor va yoz oylari jamoatchilikka oshkor bo'ldi, bu prezidentning ham e'tiboridan chetda qolmadidi. Mana endi oliy minbardan turib, zo'ravonlar va pedofillarga qarshi jazoni kuchaytirish topshirig'i berildi.

Qozog'iston prezidenti faqat ijtimoiy-iqtisodiy tashabbuslar bilan cheklangani yo'q. U o'z murojaatnomasida liberallashtirish va siyosiy islohotlar o'tkazishga yo'nalishiga sodiqligini tasdiqladi. Siyosiy raqobat va ko'ppartiyaviylikni, ijtimoiy va fuqarolar bilan muloqotni rivojlanirish zarurligini ta'kidladi. Qosim-Jomart Toqayev mamlakatda siyosiy raqobatni rivojlanirish niyatida ekanini bildirdi. Shuningdek, u davlat apparati xodimlarini 25 foiziga qisqartirish rejasini oshkor qildi. Uning fikricha, mamlakatda ko'p partiyalari tizimni rivojlanirish kerak.

"Davlat rahbari sifatida, men ko'p partiaviylik, siyosiy raqobat va mamlakatda fikrlar xilma-xilligini rivojlanirishga hissa qo'shishni vazifam deb bilaman. Bu uzoq muddatli istiqbolda siyosiy tizimning barqarorligi uchun muhimdir", deyiladi murojaatda.

Qozog'iston rahbarining bu bayonoti neft va boshqa tabiiy resurslarga boy Markaziy Osiy davlati yaqin vaqtarda nafaqat iqtisodiy yuksalishni namoyish etmoqchi ekanidan, balki mavjud an'analarga ko'ra, jamiyatni demokratishtashtirish borasida salmoqli ishlarga qo'l urmoqchiligidan dalolatdir.

Qozog'iston prezidentining ushu tarixiy nutqidagi har bir jumla interjet saytlari, ijtimoiy tarmoq sahifalarida jo'shqin munosabat bildirilmoqda. Bu bejiz emas. Chunki Qozog'iston davlati rahbari o'z nutqida xalqona ohangda odamlarning dardini gapirdi, ularning ich-ichidagi, yurak-yuragidagi kechin-malarni so'zladи. Qozog'iston qanday hayot kechirishi jiddiy muhokama etildi. Prezident har bir sohaga e'tibor qaratdi. Mamlakatning yutuq va kamichiliklari ro'yrost oshib berdi, istiqboldi taklifi va tavsiyalarni ilgari surdi.

Qosim-Jomart Toqayev tarixiy murojaatida jamiyatning barcha qatlamida mavjud bo'lgan holatga to'g'ri va oqilonna baho berib, har bir sohadagi muammo va kamichiliklarni batamom bartaraf etish zarurligini, aks holda kutilgan ijobiy o'zgarishlarga erishish imkonsiz ekanini qat'iy ma'lum qildi.



Lemminglar nega kamaydi?

Rossiyalik olimlar va Norvegiyadagi Troms universiteti jamoasi birgalikda Arktikadagi yirtqich qushlarni o'rgangach, ularning so'nggi 20 yilda iqlim o'zgarishlariga moslasha boshlagani va ushu hodisa natijasida keskin kamayib ketgan lemming kemiruvchilar bilan emas, balki dala sichqonlari bilan oziqlanayotganini ma'lum qildi, deb xabar berdi "TASS".

Jarayonda olimlar Arktikadagi kemiruvchilar soni 6 barobar kamayib ketishi natijasida yirtqich qushlarning ko'payishi 3 barobar ozayganini kuzatdi. Yamal yarimorolidagi Sibir lemminglari esa butkul yo'qolib ketgan. Kemiruvchilarning boshqa turlari — tuyoqli lemminglar soni 10, kichik boshli dala sichqonlarimiki esa 5 barobar qisqargan. Ammo

olimlar Arktikadagi iqlim o'zgarishlari lemminglar soni kamayib, dala sichqonlari ko'payishiga sabab bo'lganini aytmoqda.

Lemminglar — yirtqich qushlarning asosiy ozuqa manbasi. Ularning ko'pligi Arktikada yirtqich qushlar sonining ortishiga sabab bo'lgan. Kemiruvchilarning kamayib ketishi esa vaziyatni o'zgartirdi.

Arktika bugun isish jarayoni bilan to'qnash turibdi. Olimlar asr so'ngiga borib hududda o'rtacha harorat 11 darajagacha oshishi mumkinligidan xavotirda.



bo'lgan. Kemiruvchilarning kamayib ketishi esa vaziyatni o'zgartirdi.

Arktika bugun isish jarayoni bilan to'qnash turibdi. Olimlar asr so'ngiga borib hududda o'rtacha harorat 11 darajagacha oshishi mumkinligidan xavotirda.

Muminova Sevara Rustamovnaning 14.00.11 — Dermatologiya va venrologiya ixtisosligi bo'yicha "Atopik dermatit rivojlanishi va kechishida ba'zi sitokin genlari polimorfizmining klinik-prognostik ahamiyati" mavzusidagi (tibbiyot fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi Toshkent pediatriya tibbiyot instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.27.06.2017. Tib.29.01 raqamli ilmiy kengashning 2019-yil 20-sentabr kuni soat 14:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100140, Toshkent shahri, Yunusobod tumani, Bog'ishamol ko'chasi, 223-uy. Tel/faks: (71) 262-33-14; e-mail: tashpmi@gmail.com

Mullaxanov Javlon Baxtiyarovichning 14.00.11 — Dermatologiya va venrologiya ixtisosligi bo'yicha "Eshakem bilan xastalangan bemorlarda immun va mikrobiologik holatining klinik-diagnostik ahamiyati va davolash usul-larini takomillashtirish" mavzusidagi (tibbiyot fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi Toshkent pediatriya tibbiyot instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.27.06.2017. Tib.29.01 raqamli ilmiy kengashning 2019-yil 26-sentabr kuni soat 13:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100140, Toshkent shahri, Yunusobod tumani, Bog'ishamol ko'chasi, 223-uy. Tel/faks: (71) 262-33-14; e-mail: tashpmi@gmail.com

NIZOMIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI HUZURIDA TASHKIL ETILGAN KASBIY QAYTA TAYYORLASH KURSIGA PEDAGOGIK VA NOPEDAGOGIK OLIY MA'LUMOTGA EGA BO'LGAN TALABGORLARNI BARCHA FAN YO'NALISHLARIDA O'QISHGA TAKLIF QILAMIZ.

Kursda o'qish istagini bildirgan talabgorlar tomonidan quyidagi hujjatlar taqdim etiladi:

- Diplom va ilovasi (asl nusxasi).
- Pasport nusxasi.
- Mehnat daftarchasidan nusxa.
- Ish joyidan ma'lumotnomasi.
- 3x4 o'chamli 6 dona fotosurat.
- Talabnoma (ish joyidan).



Ma'lumot uchun quyidagi telefon raqamlariga qo'ng'iroq qiling: (90) 931-60-73, (97) 700-28-73.




Chaqaloqlar uchun EKG-yostiqlar

Rossiyadagi Janubiy Ural davlat universiteti olimlari chaqaloqlarning yurak urishi va nafas olishini kuzatib turuvchi EKG-yostiqlari patentlashga muvaffaq bo'ldi, deb yozdi "RIA Novosti".

Mutaxassislarining aytishicha, ishlamma elektrodlardan iborat tok o'tkazuvchi mato yordamida EKG-signalni qayd etish texnologiyasi asosida yaratildi. "Xotira" shakllari o'rnatilgan mato yuqori aniqlikka ega bo'lib, u go'dakka hech qanday noqlaylik tug'dirmaydi. Chaqaloq yumshoq yostiqla yetganida matoning o'zi uning

tanasi shaklini aniq vaqtida qabul qilib oladi. So'ng EKG bolaning oyoqlari, orqa qismi va boshidan olingan ma'lumotlarni qayd etadi.

Olimlar yostiqlari bir qancha klinikadagi intensiv terapiya bo'limlarda sirovdan o'tkaza boshladи. Ma'lum bo'lishicha, qurilma chaqaloqlarning nafaqat yurak urishi, balki nafas olishimi nazorat qilishda ham qo'l kelmoqda. Chunki og'ir tug'ururdan so'ng ko'pincha go'daklarga vaqtincha nafas to'xtab qolishi yoki kislorod yetishmasligi holatlari xavf soladi. EKG-yostiqlar esa bola bir necha soniya nafas olmay qolsa, darhol xabar beradi.



Ixtirochilar hozircha dunyoda o'xshashi yo'q yangi qurilma go'daklarning to'satdan o'lib qolishi holatini eng kam darajagacha kamaytirishiga ishonmoqda.

Iroda TOSHMATOVA tayyorladi.

Milliy tarbiyaning ahamiyati

Yoshlar ongiga milliy ma'naviy qadriyatlarimizni singdirishda Qur'on karim va hadisi sharif kabi muqaddas manbalarning ahamiyati beqiyosdir. Inson va jamiyatning mavjudligini ta'minlab kelayotgan qadriyatlar milliy tarbiya asosida ajodlardan avlodlarga o'tadi.

Qadimdan ota-bobolarimiz beba-ho boylik bo'lmish ilm-u ma'rifikat, ta'lim-tarbiyani inson kamoloti va millat ravnaqining eng asosiy sharti deb bilganlar.

Oxirgi yillarda ta'lim-tarbiya sohasida amalga oshirilgan ishlar biz ko'zlagan ezgu niyatlarga erishish, xalqimizning ma'naviy yuksalishi yo'lida mustahкам zamin yaratdi, deb aytu olamiz.

Milliy tarbiyada milliy g'oyaga, milliy g'ururni yuksaltirishga xizmat qiladigan timsollar, ramzlarining har biri

katta bir darslik, kuchli tarbiya vositasini hisoblanadi.

Buyuk ajodlarimizning tavallud sanalarini nishonlash ham ma'naviy va tarixiy ahamiyatga ega.

Bunday marosimlarni o'tkazish orqali yoshlar yangi qadriyatlar asosida tarbiyalanadi, ular qalbiga o'tmishga surʼat bilan yondashish, shu xalqqa mansubligi bilan g'ururlanish tuyg'ulari singdiriladi.

Nazokat OTAQULOVA,
Sirdaryo pedagogika kolleji maxsus
fanlar kafedrasi o'qituvchisi

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti jamoasi Iqtisodiyot fakulteti "Iqtisodiyot nazariyasi" kafedrasi dotsenti Anastas Ambarsumyang tur-mush o'rtoq'i

Karine AMBARSUMYAN(Gichuns)ning
vafoti munosabati bilan ta'ziya bildiradi.

Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti akademik litseyi jamoasi matematika fani o'qituvchisi, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'sratgan yoshlar murabbiysi

Mavluda SHARIPOVAning
vafoti munosabati bilan marhumaning oila a'zolari va yaqinlariga ta'ziya bildiradi.

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti va Kasaba uyushmasi qo'mitasiga jamoalari O'zDJTU "Ingliz tilini o'qitish metodikasi" kafedrasi o'qituvchisi

Inobat REYIMOVAning
vafoti munosabati bilan marhumaning oila a'zolari va yaqinlariga ta'ziya bildiradi.

Toshkent shahar Yunusobod tumani idagi 274-maktab jamoasi maktabning matematika fani o'qituvchisi Guliza Fozilovaga validayi muhtaramasi, faxriy o'qituvchi

Mevagul BAYIMBETOVAning
vafoti munosabati bilan ta'ziya bildiradi.

Zamondosh

Ustozimizdek bo'lamiz!

Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev hali O'zbekiston Respublikasining muvaqqat prezidenti va Bosh vaziri bo'lib turgan vaqtida yoq "Yoshlar siyosati haqida"gi qonunni imzolagan edi. Bu bejiz emas. O'zbekistondagi mehnatga layoqatli aholining katta qismini yoshlar tashkil qildi. Respublikada har yili 560 ming yosh kasb-hunar kollejlari, akademik litseylarni bitiradi. 70 mingga yaqin yoshlar oliy ma'lumot olib, mehnat jamoalariga qo'shiladi.

Samarqand viloyat uy-joy kommunal xizmat ko'rsatish boshqarmasi tashkil etilganiga endigina ikki yil to'ldi.

Ammo o'tgan shu qisqa fursatda viloyat aholisining turmush tarzini yaxshilash, yashash sharoitlarini yanada qulaylashtirish borasida sezilar yutuqlarga erishildi. Ko'p qavatlari uy-joylar ta'mirlandi, ichimlik suvi va oqava suvlarning quvurlari yangilandi. Samarqand shahridagi ko'p qavatlari 72 ta uyning lifti yangilandi, ko'chalar asfaltlandi. Ammo boshqarmaning eng katta yutug'i — jamaoda yoshlarning ko'pligi va o'z ishiga muhabbati balandligi.

Boshqarmada 30 yoshgacha bo'lgan 28 yigit-qiz ishlaydi. Yosh bo'lishiga qaramasdan, ularning ba'zilari bo'lim boshlig'i, ko'pi bosh mutaxassis lavozimida mehnat qilyapti. Masalan, Ilhomjon Sa'dullayev boshqarmaning Oqdaryo, Shohrux Qilichev Ishtixon tuman bo'limini boshqarmoqda.

Boshqarma boshlig'i Rustam Sattorov aynan Prezidentimiz ta'kidlaganidek, yoshlarni yuksak ma'naviyatli, qat'iy hayotiy pozitsiya, keng dunyoqarashga ega, fidoyi va vatanparvar, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiq etib tarbiyalashni o'z oldiga maqsad qilgan. U yoshlar haqida gapirganida bir gapni tez-tez takrorlashni yaxshi ko'radi:

— Men shogirdlarimdan bo'lim boshliqlari emas, hokimlar chiqaraman!

Rostdan ham Rustam Sattorov yoshlar bilan alohida dastur asosida ishlaydi, ularga jiddiy e'tibor qaratadi. Tez-tez

suhbatlashib, ularning mustaqil, tashabbuskor bo'lishlari lozimligini doimo ta'kidlaydi.

— Dunyoda hech kim tanqid ham qilmaydigan, hech kim maqtamaydigan, bor-yo'qligi bilinmaydigan, ishga kelib-ketib yuradigan odamlar juda ko'p. Bu o'rtamyonalar hech qachon biror tashabbus ham ko'rsatmaydi, biror xato ham qilmaydi, — deydi Rustam Sattorov.

— Sizlar ulardan o'rnak olmang. Ertaga bunaqa odamlar ishga kelmay qolsa ham, hatto dunyodan o'tib ketsa ham birov bilmay qolishi mumkin. Sizlarning ishxonada ham, jamiyatda ham o'z o'rningiz bo'lsin! Ovozingiz jaranglab, borlingiz bilinib tursin! Bir kun kelmasangiz, kelmaganingizni hamma bilsin! Har kuni o'zingizga "Men bugun nima qildim, nimalar qilishim mumkin edi, nimalarni qilishga ulgurmadm?" degan savollarni berib turing. Doimo yangilik axtarining va yangilik yaratating. Suv ham bir joyda tursa, ayniydi. Siz aslo bir joyda turib qolmang. Doim izlaning, bilimingizni oshiring, o'zingizni tarbiyalab, komillikka intiling. Bu yo'lda sizga eng yaxshi ko'makchi kitoblar bo'ladi. Doim kitob o'qishni odat qiling.

O'zi ham tinimsiz badiiy adapiyot mutolaa qiladigan Rustam Sattorov shogirdlarini ham adapiyotga qiziqitirib qo'yan. Boshqarmada taniqli sho'r va yozuvchilar bilan uchrashuvlar, yoshlarning "Samarqand kitob olami"ga tashrifi muntazam yo'nga qo'yilgan.

Yaqinda Rustam Sattorov tashabbusi bilan boshqarmada "Yoshlar kutubxonasi" tashkil etildi. Boshliq o'z shaxsiy kutubxonasidan keltirgan 60 ta kitob yoniga yoshlar ham kitob do'konidan olib kelgan kitoblarini terib qo'yildi.

Rustam Sattorov yoshlarga ustozlari haqida gapirib berishni yaxshi ko'radi. Yaqinda uning ustozlari boshqarmaga kelib, yoshlarga o'z hayot yo'li va boy tajribasi haqida hikoya qilib berdi.

Boshqarma yoshlari tashabbusi bilan Samarqand shahrida o'tkazilgan "Suvni asrang!" aksiyasi, ayniqsa, katta samarqand. Yosolar ittifoqi bilan hamkorlikda tashkil etilgan aksiya davomida 500 nafardan ortiq yigit-qiz Samarqand shahridagi deyarli barcha xonardonlar da bo'lib, sunving qadr-qimmati, uni asrash lozimligi haqida tushuntirish ishlari olib borishdi. Suv jihozlari nazoratdan o'tkazilib, buzuqlari tuzatildi yoki yangisiga almashtirildi. Ichimlik suvidan noqonuniy foydalanayotganlarga nisbatan choralar ko'rildi. Aksiya natijasida Samarqand shahrida bir kunda 20000 kubometrdan ortiq suv va uni ishlab chiqarishga sarflanadigan elektr energiyasi tejaldi. Eng muhim, ichimlik suvidan mahrum chekka hududlar,

Har kuni o'zingizga "Men bugun nima qildim, nimalar qilishim mumkin edi, nimalarni qilishga ulgurmadm?" degan savollarni berib turing. Doimo yangilik axtarining va yangilik yaratating. Suv ham bir joyda tursa, ayniydi. Siz aslo bir joyda turib qolmang. Doim izlaning, bilimingizni oshiring, o'zingizni tarbiyalab, komillikka intiling. Bu yo'lda sizga eng yaxshi ko'makchi kitoblar bo'ladi. Doim kitob o'qishni odat qiling.

ko'p qavatlari uylarning yuqori qavatlari haqida ham o'sha kuni toza ichimlik suvi yetib bordi. Xuddi shunday aksiyalar viloyatning boshqa shaharlarda ham o'tkazildi. Respublika uy-joy kommunal xizmat ko'rsatish vazirligi bu aksiyani qo'llab-quvvatlab, umi mamlakatimiz bo'yab ommalashtirishga qaror qildi.

Samarqand viloyat uy-joy kommunal xizmat ko'rsatish boshqarmasi yoshlari tashabbusi bilan "Tozalik dunyoni qutqaradi!" shiori ostida o'tgan aksiyada Samarqand shahridagi ko'chalar, mahallalar, do'konlar va garajlar atrofida yig'ilib qolgan chiqindilar to'planib, chiqarib tashlandi hamda aholi o'rtasida tozalik, saranjom-sarishtalikni targ'ib etuvchi suhbatlar o'tkazildi.

Sentab avvalida shahardagi Bog'ibaland anjirzorida o'tkazilgan "Anjir sayli" da ham boshqarma yoshlari mezonat maqomida xizmat qilib, sayilga tashrif buyurgan 300 dan ortiq mehmonni kutib olish va kuzatish ishlari bosh-qosh bo'ldi.

Samarqand viloyat uy-joy kommunal xizmat ko'rsatish boshqarmasi yoshlari 1-oktabr — "O'qituvchi va murabbiylar kuni" ni munosib nishonlash uchun tayyorgarlikni boshlab yubordi. Ular har hafta boy hayotiy tajribaga ega ustozlar, el nazaridagi ijodkorlar, sohada murabbiylilik maqomiga erishgan tajribali mutaxassislar bilan uchrashuvlar tashkil qilish rejasini tuzib qo'ydi.

— Bu yilgi bayramni "Ustozimizdek bo'lamiz!" shiori ostida nishonlamoq-chimiz, — deydi boshqarma yoshlari yetakchisi Mirvohid Hamidov. — Ustozimiz Rustam Sattorov mehrbon ustoz bo'lishi bilan birga hamisha ustozlarini qattiq hurmat qiladi. Ularga ehtirom ko'rsatadi. Hamisha ular bilan farxlanadi. Biz ham ustozimizdek bo'lishga, u kishining duosini olib, elda qadr topishga intilamiz.

Karimberdi TO'RAMUROD

Elda aziz

Serqirra ijodkor — yaxshi muallim

Jalaquduqlik muallirma Dilfuza Abdullayeva noyob iqtidor egasi. U Xonobod shahridagi 1-maktabda rus tili va adapiyoti fanidan dars berish bilan birga, badiiy ijod bilan ham shug'ullanadi. Bo'sh vaqtida ko'nglidagi pok tuyg'ularini qog'ozga tushirishga intildi. Samimiy va jo'shqin satrlari orqali hayotda ko'rgan-bilganlari, qalb kechinmalarini she'riyat ixlosmandlariga tuhfa etishga shoshadi.

— Kasbim menga ko'p narsa berdi, — deydi Dilfuza Abdullayeva. — Boshlang'ich sinf o'quvchilari bilan ishlash juda zavqli. Ko'p o'qish, izlanish tajribamni boyitib, uslubiy qo'llannalar yaratishga yordam berdi.



Qahramonimizning "Ko'nigila sayr" she'riy to'plami, "Harflar Vatanni ta'riflar" she'riy-uslubiy qo'llanmasi chop etilgan. Ijodkor muallima kattalar uchun ham, kichiklar uchun ham birdek zavqqa to'lib yozadi. Ayniqsa, bolalarga bag'ish-

o'yoqi, fikrashga, topqirlikka, zehnmi o'stirishga undovchi misralardan iborat. Shuningdek, maktabgacha yoshdagilari bolalar hamda boshlang'ich sinf o'quvchilariga bag'ishlangan "Mittivoylar dunyosi", ayollarni madh etuvchi she'rlardan iborat "Muqaddas ayol" to'plamlari chop etilish arafasida.

"Yilning eng yaxshi sinf rahbari" tanloving viloyat bosqichi g'olibi bo'lgan Dilfuza Abdullayeva rus bolalar yozuvchilarining asarlarini ham ona tilimizga tarjima qilib, darslarida qo'llash bilan birga gazeta

sahifalarida e'lon qilmoqda.

— Darslarda "Klaster", "Sinkveyn" usullarini ko'proq qo'llayman, chunki bu usullar o'quvchilarini fikrashga, hozirjavoblikka o'rgatadi. Ba'zan o'quvchilarining javobidan lol qolgan vaqtlarim ko'p bo'lgan. Sinfda o'yin, musobaqa tarzidagi darslar o'quvchilar qiziqishini oshiradi. "Davom ettir" topshiriqli yozma ishlari o'quvchilarini mushohada qilishga chorlaydi, — deydi muallima.

Umida EGAMBERDIYEVA

Nodirbek 6 ming dollar bilan uyga qaytadi, Rustam esa keyingi bosqichda!

9-sentabr kuni Rossiyaning Xanti-Mansiysk shahrida shaxmat bo'yicha "Jahon kubogi — 2019" bahslariiga start berildi. 4-oktabrga qadar davom etadigan turnirda dunyoning 128 nafar saralangan grossmeysterlari ishtirot etmoqda. E'tiborli, O'zbekiston sharafini bu galgi Jahon Kubogida Rustam Qosimjonov va musobaqaqaneng eng yosh ishtirotchisi Nodirbek Abdusattorov himoya qilmoqda.

1-bosqichda Rustam Qosimjonov(2657) kanadalik Yevgeniy Bareyev(2643)ni 1,5-0,5 hisobida mag'lub etib, Jahon kubogining keyingi bosqichiga yo'lldi. Endi Rustam 1/32 final bosqichida ozarboyjonlik Shahriyor Mamatdiyorova qarshi dona suradi.

Nodirbek Abdusattorov (2608) 1-bosqichda mezon sportchi Maksim Matlakov(2716) bilan babs yuritdi. Birinchi kungi asosiy 2 partiya ham tomonlar durangga rozi bo'lishdi. Ushbu gross-

meysterlar o'rtaida o'tkazilgan tay-breyk bahslarining birinchi ushrashuvida ham durang qayd etildi. Ikkinci bahsda esa tajribali Maksim Matlakov yosh sportchimizni mag'lubiyatga uchratdi.

— Men avval ham kuchli grossmeysterlar bilan o'ynaganman, mashhur nomlardan qo'rqiymayman. To'g'ri, Jahon kubogidan chiqib ketdim, ammo bu mening birinchini tajribav, va bundan mammunman. Tay-breykda xato qildim, ammo kurash teng bo'ldi. Turnir juda zo'r tashkil-



lashtirilgan. Sibir iqlimiga qaramay, bu yerda o'zimni yaxshisi his qildim, — dedi Nodirbek Abdusattorov mahalliy nashrlarga ber-gan intervyusida.

Ta'kidlash joizki, M.Matlakov ayni damda 2716 reyting bali bilan jahonning eng kuchli 100 shaxmatchilar ro'yxatida 33-o'rinda turibdi. N.Abdusattorovdan reyting bo'yicha 108 punkt yuqorida.

Shunday bo'lsa-da, Nodirbek 1-bosqichdagi ishtiroti uchun 6000 AQSh dollari mijordida gonorar oladi. 15 yoshida Jahon kubogi musobaqaqasida ishtirot etishning o'zi ham ulkan muvafqiyat! O'zbek shaxmati tarixada yangi sahifa bu!

Keyingi musobaqlarda yosh grossmeysterimizga omad tilab qolamiz!

Sh.NAMOZOV



Diqqat, bolalar!

Yangi o'quv yili boshlanishi bilan bog'cha va maktab yoshidagi bolalarning yo'llarda harakatlanishi, ta'lim maskaniga borib-kelishi, yo'llarda transport vositalarining ko'pligi bois ba'zan tirbandlik yuzaga kelishi ota-onalarning xavotirini oshiradi.



Bolalarning yo'llarda harakatlanishini tartibga solish, transport vositalari haydovchilarining piyodalar o'tish joylari va svetoforlar oldida e'tiborli bo'lishini nazorat qilish maqsadida 2019-yilning 4-sentabredan 14-sentabriga qadar Respublika miqyosida "Diqqat, bolalar" tadbirlari o'tkazildi.

O'zbekiston Respublikasi IIY YHX Bosh boshqarmasining 2019-yil 15-avgustdagagi 24/9-22009-sonli ko'rsatmasida bolalar bilan bog'liq yo'l-transport hodisalarining oldini olish, ulariga "Yo'l harakati qoidalari"ni tushuntirib, xavfsiz harakatlanish ko'nikmalarini holsi qilish ichki ishlar organlari xodimlarining doimiy vazifasi ekani qayd etilgan.

Qashqadaryo viloyatidagi umumiy o'rta ta'lim maktablarida IIIB Yo'l harakati xavfsizligi va xalq ta'limi boshqarmalari hamkorligida "Yo'l harakati qoidalari"ni o'rgatish bo'yicha o'quv-mashg'ulot va targ'ibot ishlari olib borildi. Qarshi tumanidagi 12- va Qarshi shahridagi 45-maktabda o'tkazilgan mashg'ulotlarda YHX xizmati xodimlari ko'rgazmali vositalar yordamida o'quvchilarga atroficha tushuntirish berdilar.

Sevin OCHILOV,
VXTB axborot xizmati boshlig'i

Erkinjon Turdimovga ochiq xat

Assalomu alaykum, Erkinjon aka!

Samarqand — Sharq sivilizatsiyasi markazlaridan biri. Azaldan bu diyor ko'plab ulug' shaxslar, iste'dodlarga beshik bo'lgan, yana ko'plab buyuk insonlar kamolot cho'qqilariga shu zaminda yashab, ijod qilib erishganlar. Bu an'ana hozir ham davom etyapti. Jumladan, shaxmat sohasida.

O'zbekistondan shu kungacha shaxmat bo'yicha 4 nafar jahon championi yetishib chiqqan: Rustam Qosimjonov (kattalar o'rtaida, 2004-yil), Ibrohim Hamroqulov (16 yoshgacha, 1998-yil), Nodirbek Abdusattorov (8 yoshgacha, 2012-yil) va Shamsiddin Vohidov (14 yoshgacha, 2015-yil). Shu 4 jahon championining biri Samarqand farzandi (Ibrohim Hamroqulov). Yana biri — Nodirbek Abdusattorovning ota-onasi asli samarcandlik.

Mustaqillik davrida mamlakatimizdan 22 shaxmatchi xalqaro grossmeyster unvoniga sazovor bo'lgan. Shundan 7 nafari samarcandlik (bu mamlakat miqyosida poytaxtdan so'ng 2-natija). Birgina Vohidovlar va Hamroqulovlar sulolasini hozir butun dunyoda tanishadi.

Ular safiga ildizlari Samarqand zaminiga tutash, jahonning eng yosh grossmeysterlari ro'yxatidan joy olgan Nodirbek Abdusattorov va Javohir Sindorovni ham qo'shsak, viloyat shaxmat maktabi O'zbekistonda nechog'li muhim va mustahkam o'ringa ega ekanini anglash mumkin.

Oqqan daryo oqaveradi. Bu yil ham samarcandlik yosh shaxmatchilar mamlakat, qit'a va jahon championatlarida oltin, kumush va bronza medallarga sazovor bo'lishdan to'xtagini yo'q. Bolalar va o'smirlar o'rtaida O'zbekiston championatidan viloyat va killari 7 medal bilan qaytishdi: Kamron Karimov(10 yoshgacha o'g'il bolalar, oltin), Afruza Hamdamova(10 yoshgacha qizlar, oltin), Gulnora Karimova(12 yoshgacha qizlar, oltin), Tohir Ne'matov(8 yoshgacha o'g'il bolalar, kumush), Ruqiya Olimova(8 yoshgacha qizlar, kumush), Ruxshona Rahimberdiyeva(12 yoshgacha qizlar, kumush), Daler Vohidov(18 yoshgacha o'smirlar, kumush).

Aprel oyida Shri-Lankada o'tkazilgan Osiyo championatidan Afruza Hamdamova 2 ta kumush medal bilan qaytdi(standart va rapid).

Avgustda Belarus poytaxti mezonlik qilgan tekzor shaxmat bo'yicha jahon championatida Afruza Hamdamova oltin, Ruqiya Olimova kumush medalga sazovor bo'ldi.

Bu yoshlar O'zbekistonimizning, eng avvalo Samarcandimizning faxri! Ota-onalari, murabbiylari ularning iste'dodini yuzaga chiqarish uchun qanchalar zahmat chekayotganidan xabarim bor. Shunday vaziyatda viloyat hokimligi, xalq ta'limi boshqarmasi, Yoshlar ittifoiqi viloyat kengashi, jismoniy tarbiya va sport boshqarmasi mutasaddilari, ular yashaydigan tuman mutasaddilari bir og'iz rahmat deb qo'yishsa, bolalarning ham, ota-onalari, murabbiylarining ham ko'ngli ko'tarilar, navbatdagi g'alabalarga rag'bat, turki bo'lib xizmat qildi. Championatning ota-onalari va murabbiylaridan bir nechasi bilan suhbatlashganimda, kayfiyatli tushkunroq ekanini ko'rdim. Shundan so'ng tumanlardagi bu boradagi ishlarni surishtirdim, va niroyat Sizga murojat etishga qaror qildim.

Erkinjon aka! O'zingizga ma'lum, champion bo'lish oson emas, ayniqsa shaxmatda. Shukrki, O'zbekistonimiz jahonda, Samarcandimiz O'zbekistonda shaxmat borasida mustahkam o'z o'miga ega va o'mini yanada mustahkamlab bormoqda. Hali Samarcand shaxmat maktabi yana ko'plab championlarni tarbiyalab yetishtirishiga ishonaman. Siz ham fikrimga qo'shilishingizga va iste'dodli yoshlarni qo'llab-quvvatlashingizga aminman!

Husan KARVONLI



Yoshlar robototexnikaga ko'proq qiziqmoqda

O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining 28 yilligi hamda yangi o'quv yili boshlanishi munosabati bilan "Barkamol avlod" respublika bolalar texnik ijodiyot markazida "Jonajon O'zbekistonim, mangu bo'l omon!" shiori ostida "Ochiq eshiklar kuni" o'tkazildi.



Tadbir Chilonzor tumanidagi barcha umumta'lim maktablari o'quvchilarini markaz faoliyati bilan tanishtirish, mayjud to'garaklar haqida batafsil ma'lumot berish, o'quvehilarini turli hunar-texnika to'garaklariga jaib etish, bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazish maqsadida tashkil etildi.

Hozirgi kunda "Barkamol avlod" respublika bolalar texnik ijodiyot markazida 15 yo'nalish bo'yicha 19 ta to'garak faoliyati yo'Iga qo'yilgan. "Boshlang'ich texnik modellashtirish", "Aviamodel", "Robototexnika", "Duradgorlik", "Yosh dasturchi", "Tasviriy san'at", "To'qish", "Bichish-tikish", "Ingliz tili", "Yosh doirachi", "Raqs" to'garaklari shular jumlasidan.

"Ochiq eshiklar kuni" tadbirida "Aviamodel", "Robototexnika", "Duradgorlik", "Tasviriy san'at", "Karving" to'garagi a'zolarining mustaqil ijodiy ishlardan namunalan mehnomonar e'tiboriga havola etildi.

Tadbirda Xalq ta'limi vazirligi, hududagi "Xirmontepa", "Shuhrat" mahallasi vakillari markaz xodimlari va to'garak a'zolarini o'quv yili boshlanishi bilan tabriklab, markaz faoliyatiga muvaffaqiyat tiladi. To'garaklarning faol a'zolari faxriy yorliq va esdalik sovg'alari bilan taqdirlanadi.

Tadbir qatnashchilari Vatan, istiqlol, bolalikni madh etuvchi qo'shiq va she'rler ijro etishdi, "Turon" sport jamoasining chiqishlari, "Aviamodel" to'garagi o'quvchilari ishtirokida planerlarning ko'rgazmali uchirilishi hayajonli lahzalarga boy bo'ldi.

Markazimiz yangi o'quv yiliga yaxshi tayyorgarlik ko'rdi. Jumladan, o'quv dastur va qo'llanmalar yanada takomillashtirilgan holda tuzildi, kerakli xomashyolar, ehtiyyot qismalari tayyor holga keltirildi, to'garaklar soni ko'paydi, — deydi markaz rahbari Lola To'rayeva. — O'quvchi-yoshlar, asosan, texnika yo'nalishiga, robototexnikaga ko'proq qiziqayotgani, bu to'garaklar a'zo bo'luvchilar soni ko'paygani, ota-onalar farzandlarini markazimizga o'z xohishlari bilan olib kelayotgani ahamiyatga molik. Avvallari markaz xodimlari bilan birgalikda maktablarga targ'ibot-tashviqot ishlari uchun qatnab vaqt yo'qtardik. Endi esa Uchtepa, Chilonzor, Shayxontohu tumanlaridan markazimizga kelayotgan yoshlar ko'pchilikni tashkil etadi.

Dilrux ISOMIDDINOVA,
O'ZJOKU talabasi



Burhon RIZOQULOV olgan suratlari.

Bosh muharrir: Husan NISHONOV

Gazeta O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida 2006-yil 22-dekabrdra 0067-raqam bilan ro'yxatga olingan.
Indeks: 149, 150. G-929, Tiraqji 11626.

Hajmi 4 bosma taboq. Ofset usulida bosiligan,
qog'oz bichimi A-3. Bahosi sotuvda erkin narxda.

TELEFONLAR:

qabulxona — (71) 233-50-55;
kotiblyat — (71) 233-99-15;
reklama va marketing bo'limi —
(71) 233-42-92 (faks), (71) 236-54-17.



"Ma'rifat" dan
materiallarni ko'chirib
bosish tahririyat
ruxsati bilan amalga
oshinilishi shart.

Tahririyatga kelgan
qo'lyozmalar taqiz
qilinmaydi va mual-
lifga qaytarilmaydi.

MANZILIMIZ:
100083, Toshkent shahri,
Matbuotchilar ko'chasi, 32-uy.
Web-site: www.marifat.uz

Dizaynerlar: Malohat Toshova, Faxreddin Rahimov.
Navbatchi muharrir: Asolat Ahmadqulova.
Navbatchi: Faxreddin Rahimov.

Gazeta haftaning chorshanba va shanba kunlari chiqadi.

"Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi.
Korxonalar manzili: Buyuk Turon ko'chasi, 41-uy.

O'ZA yakuni — 00.30. Topshirildi — 00.50

Ma'rifat

TA'SIS ETUVCHILAR:

O'zbekiston Xalq ta'limi vazirligi,
O'zbekiston Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi,
O'zbekiston Ta'lim, fan va madaniyat xodimlari
kasaba uyushmasi Respublika kengashi.